XALQ DEPUTATLARI XATIRCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 12-iyul VI-87-96-5-77-K/24 Xatirchi tumani

Tumandagi qabristonlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining tumandagi nomlanmagan qabristonlarni nomlash to‘g‘risidagi takliflarini muhokama qilib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Respublika toponimika boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risida 2024-yil 30-apreldagi 05-19-011284-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha Respublika komissiyasining xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga asosan Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining tumandagi nomlanmagan qabristonlarni nomlash to‘g‘risidagi takliflari ilovaga muvofiq ma’qullansin va tasdiqlansin.

3. Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (V. Avlanov), Obodonlashtirish boshqarmasi (J. Rahmonov), Statistika bo‘limi (A. Xusanov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A. Shodiyev), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (A. Xidirov) mazkur qarordan kelib chiqib tegishli hujjat va hisobotlarda belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin, yangidan nomlangan qabristonlar nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Nomozov) mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilish hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I. Muxammadiyev), Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (V. Avlanov) hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi

MUSTAFOYEV
IBODULLA XXX

Xalq deputatlari Xatirchi tumani
Kengashining
2024-yil 12-iyuldagi
VI-87-96-5-77-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xatirchi tumanidagi nomlari o‘zgartiriladigan geografik obyektlar (qabristonlar)

T/r	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi
1.	Nomsiz (Angidon MFY)	Yuqori Qo‘ng‘irot
2.	Nomsiz (Oltinsoy MFY)	Quyi Achchi
3.	Nomsiz (Oltinsoy MFY)	Quyi Chilash
4.	Nomsiz (Bunyodkor MFY)	Kalqishloq
5.	Nomsiz (Baxshijar MFY)	O‘rta Ko‘ktoshota
6.	Nomsiz (Kattasoy MFY)	Yuqori Kattasoy
7.	Nomsiz (Navro‘z MFY)	Quyi Ko‘ktoshbobo
8.	Nomsiz (Mirishkor MFY)	O‘rta G‘oyibota
9.	Nomsiz (Mustaqillik MFY)	Quyi Xo‘jabobo
10.	Nomsiz (Tinchlik MFY)	Quyi Oqtoshota
11.	Nomsiz (Fidokor MFY)	Quyi Qumota
12.	Nomsiz (Maydon MFY)	Yuqori Maydon
13.	Nomsiz (Dehqonobod MFY)	Quyi G‘oyibota
14.	Nomsiz (Ikrom Karvon MFY)	Quyi Arabtepa